

XII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(Adliya boshqarmasi huzuridagi Davlat xizmatlari markazlari
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning 1- yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 42 585 taga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 23 920 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 56,2 % ni tashkil qildi.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahri (32,4 %), Chust (8,2 %), Uchqo'rg'on (6,5 %) va Uychi (6,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(2025- yilning 1- yanvar holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	42 585	100,0	23 920	100,0
Namangansh.	13 801	32,4	7 628	31,9
Mingbuloq	2 086	4,9	1 229	5,1
Kosonsoy	2 650	6,2	1 390	5,8
Namangan t.	2 609	6,1	1 398	5,8
Norin	2 195	5,2	1 238	5,2
Pop	2 673	6,3	1 832	7,7
To'raqo'rg'on	2 512	5,9	1 536	6,4
Uychi	2 705	6,3	1 423	6,0
Uchqo'rg'on	2 749	6,5	1 340	5,6
Chortoq	2 701	6,3	1 515	6,3
Chust	3 480	8,2	2 037	8,5
Yangiqo'rg'on	2 424	5,7	1 354	5,7

Ro'yxatdan o'tgan sub'yektlarning hududlar bo'yicha ulushi, % da
(2025-yilning 1-yanvar holatiga)



- | | | | |
|----------------|-------------|-----------------|-----------------|
| ■ Namangan sh. | ■ Mingbuloq | ■ Kosonsoy | ■ Namangan t. |
| ■ Norin | ■ Pop | ■ To'raqo'rg'on | ■ Uychi |
| ■ Uchqo'rg'on | ■ Chortoq | ■ Chust | ■ Yangiqo'rg'on |



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (33,3 %)), sanoat (19,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (8,2 %) hamda qurilish (6,5 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha

(2025- yilning I- yanvar holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	Birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	38 005	100,0	19 714	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 450	9,1	1 414	7,2
sanoat	8 432	22,2	3 886	19,7
qurilish	2 729	7,2	1 275	6,5
savdo	14 187	37,3	7 938	40,3
tashish va saqlash	1 492	3,9	896	4,5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 092	5,5	1 194	6,0
axborot va aloqa	618	1,6	338	1,7
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	842	2,2	624	3,2
boshqa turlari	4 163	11,0	2 149	10,9

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni (tashkiliy-xuquqiy shakli bo'yicha 2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis xujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamoat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining doirasida solidar javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Oilaviy korxonalar soni
(2025- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2025- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 1 542 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 92 taga yoki 6,3 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 836 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 124 taga yoki 87,1 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 184 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12 taga yoki 7,0 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining xududlar kesimida soni
(2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2025- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 29 742 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 934 taga yoki


7,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 15 712 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2332 taga yoki 87,1 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 587 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 681 taga yoki 84,0 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni (2025- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2025- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 5 421 ta (jamidagi ulushi 34,5 %), Pop 1 188 ta (7,6 %), Chortoq 1136 ta (7,2 %), Chust 1 029 ta (6,5 %), Uychi 982 ta (6,3 %), Kosonsoy 943 ta (6,0 %), Yangiqo'rg'on 895 ta (5,7 %), Namangan 892 ta (5,7 %), To'raqo'rg'on 868 ta (5,5 %), Norin 845 ta (5,4 %) xissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha eng kam Mingbuloq 709 ta (4,5 %), Uchqo'rg'on 804 ta (5,1 %) tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalari jamiga nisbatan ulushi, foizda



Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonasi va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda




- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

- Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va xavoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

**Ro'yxatga olingan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(2025- yilning 1- yanvar holatiga)

	<i>Ro'yxatga olingan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
Jami	42 585	100,0	23 920	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 477	8,2	1 441	6,0
sanoat	8 436	19,8	3 890	16,3
qurilish	2 745	6,5	1 290	5,4
savdo	14 192	33,3	7 940	33,2
tashish va saqlash	1 492	3,5	896	3,7
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 094	4,9	1 196	5,0
axborot va aloqa	652	1,5	370	1,5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	931	2,2	708	3,0
boshqa turlari	8 566	20,1	6 189	25,9

Faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha ulushi, % da
(2025- yilning 1- yanvar holatiga)





Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat koʻrsatayotgan subʼektlarning ulushi 56,2 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat koʻrsatmayotganlarning ulushi 43,8 % ni tashkil etganligini koʻrsatmoqda, bu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda 5,6 foiz oshgan.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat koʻrsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da

01.01.2024 yil

01.01.2025 yil




 Faoliyatsizlar

 Faoliyat koʻrsatayotganlar

2025- yilning 1- yanvar holatiga 19 714 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2 987 ta, oilaviy korxonalar – 836 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 15 712 tani va 179 tani boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda


■ 01.01.2024 yil ■ 01.01.2025 yil



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 4 031 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 84,4 foizni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (1 251 ta), Pop (312 ta), Uchqo'rg'on (307 ta), Chust (302 ta), Mingbuloq (283 ta), Kosonsoy (281 ta), Yangiqo'rg'on (274 ta), Chortoq (249 ta), Norin (218 ta) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kam esa, To'raqo'rg'on (196 ta), Uychi (195 ta) va Namangan (163 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda
(2025- yilning 1- yanvar holatiga)




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(2025- yilning 1- yanvar holatiga)




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(2025-yilning 1-yanvar holatiga)



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot, birlikda




Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda
(2024- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 41,1 %, sanoatda 18,7 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 8,7 %, qurilishda 4,3 % ni tashkil etadi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi
(2024- yilning yanvar-dekabr oylarida)



2024- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

31,5 %



Sanoat

16,8 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

23,4 %



Savdo

20,7 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

2,2 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar

3,3 %



Boshqa turlar

2025- yilning 1- yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 19 547 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 84,5 % tashkil qilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi, ya'ni 6 329 tasi (jami sub'ektlarning 32,4 %) Namangan shahriga, 1 697 tasi (8,7 %) Chust, 1 478 tasi (7,6 %) Pop, 1 262 tasi (6,5 %) To'raqo'rg'on, 1 252 tasi (6,4 %) Chortoq, 1 159 tasi (5,9 %) Namangan tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 984 tasi (5,0 %) Mingbuloq, 988 tasi (5,1 %) Norin, 1 061 tasi (5,4 %) Yangiqo'rg'on, 1 066 tasi (5,4 %) Uchqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
hududlar bo'yicha soni

	2024- yilning 1- yanvar holatiga		2025- yilning 1- yanvar holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	23 136	100,0	19 547	100,0
Namangan sh.	7 192	31,1	6 329	32,4
Mingbuloq	1 048	4,5	984	5,0
Kosonsoy	1 351	5,8	1 117	5,7
Namangan t.	1 480	6,4	1 159	5,9
Norin	1 149	5,0	988	5,1
Pop	1 646	7,1	1 478	7,6
To'raqo'rg'on	1 551	6,7	1 262	6,5
Uychi	1 385	6,0	1 154	5,9
Uchqo'rg'on	1 646	7,1	1 066	5,4
Chortoq	1 483	6,4	1 252	6,4
Chust	2 038	8,8	1 697	8,7
Yangiqo'rg'on	1 167	5,1	1 061	5,4

Faoliyat ko'rsatayotgan jami 19 547 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 7 905 tasi (40,4 %) - savdoda, 3829 tasi (19,6 %) - sanoatda, 1 404 tasi (7,2 %) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 1 268 tasi (6,5 %) - qurilishda, 1 189 tasi (6,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 890 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 621 tasi (3,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 338 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek, 2 103 tasi (10,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2025-yilning 1-yanvar holatiga)



2024- yil yanvar-dekabr oylarida jami 3 929 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 84,7 foizni tashkil etgan.

Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (1 204 ta), Pop (305 ta), Uchqo'rg'on (304 ta), Chust (297 ta), Mingbuloq (278 ta), Kosonsoy (276 ta), Yangiqo'rg'on (269 ta), Chortoq (245 ta) va Norin (211 ta) tumanlariga, eng kam tashkil etilganlari esa, Namangan (159 ta), Uychi (189 ta) va To'raqo'rg'on (192 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'p tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda (1614 ta), sanoatda (731 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (348 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (255 ta) hamda qurilishda (173 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (107 ta), axborot va aloqada (114 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami ro'yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo'lmoqda.

Jumladan, 2025- yil 1- yanvar holatiga Namangan viloyatida jami ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 48,3 % ni (18 251 ta) tashkil qilgan, ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 366 taga ko'paygan.


Hisobot davrida 2 150 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 1 353 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 62,9 %) ixtiyoriy tugatilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2024- yil yanvar- dekabr)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2025- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 217 tani tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17 taga yoki 92,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 92 tasi qo'shma korxonalar, 125 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma
korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda
(2025- yilning 1- yanvar holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda
(2025 yilning 1-yanvar holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar 90 ta (41,4 %), Chust 17 ta (7,8 %), Kosonsoy, Yangiqo'rg'on 16 tadan (7,4 %dan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida korxonalar Uchqo'rg'on 5 ta (2,4 %), Mingbuloq, Chortoq 6 tadan (2,8 %dan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining hududlar bo'yicha soni va ulushi**
(2025- yilning 1- yanvar holatiga)

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi % da
Viloyat jami	217	100,0
Namangan sh.	90	41,4
Mingbuloq	6	2,8
Kosonsoy	16	7,4
Namangan t.	9	4,1
Norin	9	4,1
Pop	15	6,9
To'raqo'rg'on	14	6,5
Uychi	14	6,5
Uchqo'rg'on	5	2,3
Chortoq	6	2,8
Chust	17	7,8
Yangiqo'rg'on	16	7,4


Faoliyat ko'rsatayotgan 217 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 89 tasi (41,0 %) sanoat, 56 ta (25,8 %) savdo, 17 ta (7,8 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 12 tasi (5,5 %) qurilish, 7 tasi (3,2 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 7 tasi (3,2 %) tashish va saqlashda, 3 tasi (1,4 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda 19 tasi (8,9 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi**
(2025- yilning 1- yanvar holatiga)

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	217	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	17	7,8
sanoat	89	41,0
qurilish	12	5,5
savdo	56	25,8
tashish va saqlash	7	3,2
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	1,4
axborot va aloqa	7	3,2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	3,2
boshqa turlari	19	8,9

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da
(2025- yilning 1- yanvar holatiga)



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 62 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6 taga yoki 10,7 foizga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi – 20 ta, Rossiya Federatsiyasi – 13 ta, Turkiya – 8 ta, Janubiy Koreya – 6 ta, Qozog'iston, Tojikiston – 4 tadan, Qirg'iziston – 2 ta, Pokiston Islom Respublikasi – 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.


Viloyatdagi 62 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar (33 ta), Chust (6 ta), Kosonsoy, Yangiqo'rg'on (4 tadan), To'raqo'rg'on, Uychi (3 tadan), Mingbuloq, Norin, Pop (2 tadan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Namangan, Uchqo'rg'on va Chortoq tumanlarida (1 tadan) xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
hududlar kesimidagi soni va ulushi
(2024- yil yanvar-dekabr)


	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	62	100,0
Namangan sh.	33	53,3
Mingbuloq	2	3,2
Kosonsoy	4	6,5
Namangan t.	1	1,6
Norin	2	3,2
Pop	2	3,2
To'raqo'rg'on	3	4,8
Uychi	3	4,8
Uchqo'rg'on	1	1,6
Chortoq	1	1,6
Chust	6	9,7
Yangiqo'rg'on	4	6,5

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 18 ta, sanoatda 16 ta, axborot va aloqa 7 ta, qurilish 6 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 4 tadan, tashish va saqlash, yashash va ovqatlanishda 2 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(2024- yil yanvar-dekabr)



2024- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni, 2025- yilning 1- yanvar holatiga 1 542 tani tashkil etib, ulardan 896 tasi yoki 58,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan davlat ro'yxatidan o'tganlarning umumiy soniga nisbatan o'rtacha 8,1 % ga kamayganligini ta'kidlash mumkin.